# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

# OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

# TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA PEDAGOGIK MEDIATA’LIMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI: MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**Termiz-2025**

Termiz davlat pedagogika instituti Globallashuv sharoitida pedagogik media ta’limni rivojlantirish mexanizmlari: muammolari va yechimlari ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, – Surxondaryo: Termiz publishing center, 2025, 500 bet.

**Mas’ul muharrir:** S.M.Norboyeva. pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), v.b.dotsent
**Texnik muharrir:** Eshqorayev. S.

**To‘plamni nashrga tayyorlovchilar:**
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b.dotsent
Achilov Yakub Sa’dulloyevich – Pedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasi assistent-o‘qituvchisi
Norboyev Farxod Chorshanbiyevich - Pedagogika va inklyuziv ta’lim kafedrasi assistent-o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**
Ismoilov Murodulla Qahramonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Imomqulov Rasul Raxmonovich - pedagogika fanlari nomzodi, v.b. dotsent

**Tahrir hay’ati a’zolari:**
Katta o‘qituvchilar: D.J.Sattorova, Z.R.Rasulova assistant-o‘qituvchilar: A.E.Oltiboyev, O.S.Soat, F.R.Jo‘rayev, K.Shaydullayeva, Sh.A.Mamatqobilova, M.B.Xurramova, M.Sh.Xolova, tayanch doktorant: Z.M.Qurbonova

**Mazkur to‘plamdagi maqola va tezislarda keltirilgan ma’lumot va faktlarning to‘g‘riligi, aniqligi, imlosi, uslubi hamda ilmiy saviyasiga mualliflar mas’ul.**

**ISBN:** 978-9910-8705-0-7

**© Termiz davlat pedagogika instituti**

**©“Termiz publishing center” 2025**

Referat, prezentatsiya, dars ishlanma va shu kabilarni tayyorlash uchun raqamli texnologiyalarni ahamiyati yuqoridir.

Raqamli ta’lim platformalari o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlab, bilim olish jarayonini samaraliroq qiladi.

Raqamli ta’lim muhiti mustaqil ta’lim uchun ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Onlayn platformalar va manbalar talabalarga darsliklar, videolar, maqolalar va interaktiv tadbirlarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli o‘quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini berish uchun ishlatilishi mumkin. Bu resurslar alohida talabalarning o‘ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun moslashtirilishi mumkin, bu ularga o‘z tezligida va o‘z uslubida o‘rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, ta’lim dasturlari, onlayn viktorinalar va virtual simulyatsiyalar kabi raqamli vositalar o‘rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qilib, mustaqil ta’lim samaradorligini yanada oshirishi mumkin. Raqamli vositalardan foydalanish, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘quv jarayoni haqida qimmatli tushunchalar berishi mumkin, bu ularga alohida talabalar qo‘shimcha yordam yoki ko‘rsatmalarga muhtoj bo‘lishi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlash imkonini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli — Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi qarori.

2. Axborot texnologiyasi va tizimi: Oliy o‘quv yurti uchun darslik/ R.X.Alimov va boshqalar. – T.: Voris. 2011. B 34-35

3. I Yulduz, M Umida. “Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers”- Бюллетень науки и практики, 2021. Related articles Allversions.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=ZW3KcwEAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=ZW3KcwEAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.

## BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARDA EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA Eko-STEAM YONDASHUV YO’LLARI

*Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich,*
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)*

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarda ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. bu ekologik kompetentligini oshirish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga ko‘maklashish va talabalarning ijodkorligini oshirishga qaratilgan yondashuv. Boshlang‘ich ta’lim dasturlarida ekologik kompetentligini oshirish uchun ekopedagogik yondashuv qo‘llaniladi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. 79-modda. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi[2] qarori loyihasi kiritilishi natijasida, zamonaviy maktablar o‘quvchilarga zamonaviy o‘quv va laboratoriya materiallari, darsliklar, o‘quv materiallari, kompyuterlar va multimedia texnikasi bilan jihozlangan maktablar o‘quvchilarga texnologiya bilan yaqindan tanishish va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishni osonlashtirish imkonini beradi. O‘quv dasturlari va ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi qadamdir. Talabalarning innovatsion va masofaviy pedagogik usullardan foydalangan holda yaxshi ta’lim tajribasiga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda ekopedagogik kompetentligini rivojlantirish o‘quvchilarning ekologik ongli bo‘lishlarini va barqaror dunyo uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashlarini ta’minlashga qaratilgan. Ekopedagogik malaka talabalarning tabiiy dunyo haqidagi xabardorligini oshirishga va ularga barqaror dunyo uchun zarur ko‘nikmalarni berishga qaratilgan. Ushbu malaka talabalarga kelajakda ekologik muammolar to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashga imkon beradi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarda ekopedagogik ta’limni va eko-kompetentligini rivojlantirish maqsadida Eko-STEAM yondashuv ilmiy-pedagogik muammosini hal etish davr talabi va zaruratini keltirib chiqargan. Bu zaruriyat mazkur tadqiqot talabalarda ekopedagogik kompetentligini va Eko-STEAM yondashuv rivojlantirish o‘z yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammo sifatida, Eko-STEAM yondashuvi (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) va ekologik ta’lim tushunchalari ajratilgan holda yaratilgan ta’lim yondashuvidir. Ushbu yondashuv talabalarga tabiat va ekologiya to‘g‘risida ma’lumot berishdan tashqari, tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni rag‘batlantirish va talabalarning ijodkorligini oshirishga qaratilgan. Agar ushbu ta’lim yondashuvining tarixiy-ijtimoiy taraqqiyotiga boshlang‘ich ta’lim nuqtai nazaridan qaralganda. So‘nggi yillarda tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o‘zgarishi kabi masalalarning ahamiyati oshdi. Shu sababli, atorf-muhitga mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Ushbu holat boshlang‘ich ta’lim dasturlarida ham o‘z aksini topdi va dasturga atrof-muhitga sezgirlik va barqaror hayot mavzulari qo‘shila boshlandi.

Jumladan, STEAM ta’limini rivojlantirish borasida so‘nggi davlatimiz tomonidan ishlar olib borilmoqda. STEAM ta’limi talabalarning fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari bo‘yicha qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. STEAM ta’limi bilan bir qatorda talabalarning ijodkorligini oshirish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Ekomadaniyat bu o‘quvchilarda hayvonot va o‘simlik hayoti, tabiiy resurslar va atrof-muhitning ifloslanishi kabi masalalar to‘g‘risida xabardor qilishga qaratilgan. Ekologik ta’lim boshlang‘ich ta’lim dasturlariga kiritilgan bo‘lsa-da, Eko-STEAM yondashuvi bilan yanada takomillashadi.

Eko-STEAM yondash, ekologik ta’lim tushunchalarini birlashtirish orqali paydo bo‘ldi. Ushbu yondashuv talabalarga barqaror hayot ko‘nikmalarini va atrof-muhitni anglashni ta’minlashga qaratilgan.

Eko-STEAM yondashuvi talabalarga amaliy o‘rganish tajribasini beradi. Talabalar o‘quv jarayonida tabiiy resurslardan foydalanish, qayta ishlash, energiya tejash kabi mavzularni o‘rganadilar. Ushbu yondashuv yordamida talabalar atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror hayot, innovatsiyalar, tadbirkorlik va texnologiyalardan foydalanish to‘g‘risida xabardor qilinadi va ularning kelajakdagi yetakchilar sifatida o‘qitilishi ta’minlanadi. Eko-STEAM yondashuvidan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekopedagogik kompetensiyalari yaxshilanadi, shu bilan birga o‘quvchilarning texnologiyasi, dizayni, san’at va muhandislik ko‘nikmalari ham yaxshilanadi. Ushbu yondashuvdan foydalanish talabalarning keng qamrovli ta’lim olishlari va yaxshi ta’lim tajribasini taqdim yetishining dalili sifatida qaralishi mumkin.

**Natijada,** Eko-STEAM yondashuvi STEAM, ekologik ta’lim va badiiy dekonstruksiya elementlarini birlashtirib, talabalarga fan, texnologiya, muhandislik, matematika, tabiat dunyosi haqidagi bilimlar, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, dizayn va san’at kabi bir qator ko‘nikmalarni egallashga imkon beradigan ko‘nikmalar. Ushbu yondashuv talabalarning ekologik jihatdan ongli shaxs bo‘lib o‘sishiga yordam beradi va STEAM, ekologik ta’lim, dizayn va san’at kabi sohalarda qiziqish va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarda ekopedagogik kompetentligini rivojlantiradi.

Eko-STEAM ta’limini ommalashtirish talabalarning fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari bo‘yicha qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan. Eko-STEAM ta’limi bilan bir qatorda talabalarning ekopedagogik kompetentligini rivojlantiradi. Eko-STEAM yondashuvi, san’at va dizayn kabi elementlarni ekologik ta’lim bilan birlashtirib, talabalar fan, texnologiya, muhandislik, matematika, dizayn, san’at, tabiiy dunyo, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, barqaror hayot va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarda ekopedagogik ta’lim uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu yondashuv talabalarga kelajakda duch keladigan muammolarni bartaraf yetish uchun zarur ko‘nikmalarni berishga qaratilgan.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak Eko-STEAM yondashuvi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekopedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish va STEAM, badiiy, dizayn va ekologik ta’lim sohalarida ularning mahoratini oshirish nuqtai nazaridan innovatsion yechimdir. Ushbu yondashuv talabalarga barqaror yashash uchun zarur ko‘nikmalarni egallashga va kelajakdagi ekologik muammolarni bartaraf yetish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.

**Adabiyotlar:**


9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. https://lex.uz/docs/6445145. 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy yetish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PQ – 3931-son Qarori.
11. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo’lgan davrda O’zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5863-son farmoni Toshkent, 2019-yil 30-oktyabr.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-son farmoni.
13. Yuldashovich K. A. STEAM integrated yeducational technology in yenhancing yeco-learning yeffectiveness //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 01-05.
14. Sousa, D. A., & Pilecki, T. (2013). From STEM to STEAM: Using brain-compatible strategies to integrate the arts. Thousand Oaks: Corwin Press.

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA DARS VA DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

*Norboyeva Malika Maxmarasul qizi*
*Termiz davlat pedagogika instituti1-bosqich talabasi*
*Email:norboyevamalika@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ekologik madaniyatni shakllantirish haqida so’z yuritiladi.*

***Kalit so’zlar****: Ekologik madaniyat, boshlang‘ich ta'lim, dars, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, atrof-muhit, barqaror rivojlanish, ta'lim-tarbiya, ekologik tarbiya*.

Kirish. Hozirgi davrda atrof-muhit muammolari global miqyosda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Ekologik muhitni asrash va tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish madaniyati kishilarning dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasiga bog‘liqdir. Ayniqsa, yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirish – kelajak avlodni barqaror rivojlanishga tayyorlashning muhim shartidir. Bu jarayonni boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlash esa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda bolalarda atrof-muhitga nisbatan munosabat va mas’uliyat hissi shakllanadi. Boshlang‘ich ta’limda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarga ekologik bilim va ko‘nikmalarni yetkazish, ularni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishda boshlang‘ich ta’limning o‘rni, dars jarayonida va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan metodlar, shuningdek, ushbu jarayonni amalga oshirishning dolzarb jihatlari yoritiladi.

**Asosiy qism:** Ekologik madaniyat tushunchasi va uning ahamiyati Ekologik madaniyat – bu insonning tabiatga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatini ifodalovchi ijtimoiy hodisadir. Ekologik madaniyat kishilarning tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni asrash, ekologik muvozanatni saqlashga bo‘lgan intilishlarini qamrab oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida asosiy e’tibor:

1. Bilim berish: Tabiat haqidagi asosiy ma’lumotlarni yetkazish.
2. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish: Amaliy mashg‘ulotlar orqali ekologik qoidalarni hayotga tatbiq etishni o‘rgatish.
3. Qadriyatlarni rivojlantirish.

| | | |
|---|---|---|
| | *Mamatova Umida Zafarjon qizi* | |
| *38* | **BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARDA EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA Eko-STEAM YONDASHUV YO'LLARI**<br>*Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich* | *540* |
| *39* | **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA DARS VA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH**<br>*Norboyeva Malika Maxmarasul qizi* | *543* |
| *40* | **TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**<br>*Normo'minova Shahnoza bozor qizi* | *545* |
| *41* | **TALABALARDA INTERNETGA TOBELIKNI BARTARAF ETISH MASALALARI**<br>*Otamurodova Zarina Egamberdi qizi* | *547* |
| *42* | **MOBIL TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**<br>*Qarshiboyev Nizomiddin Abdumalik o'g'li* | *549* |
| *43* | **MOBIL ILOVALARNI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI (MOBIL ILOVALAR FANI MISOLIDA)**<br>*Qarshiboyev Nizomiddin Abdumalik o'g'li* | *554* |
| *44* | **MEDIAKOMPITENTLIKNI TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI**<br>*Qodirova Sharifa Nigmatullayevna, Kenjaboyeva Nigora* | *559* |
| *45* | **TALABALARDA MEDIAKOMPITENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**<br>*Qodirova Sharifa Nigmatullayevna, Kenjaboyeva Nigora* | *561* |
| *46* | **TALABALAR MUSTQIL ISHINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH**<br>*Qorjovova Asaloy G'ayrat qizi* | *564* |
| *47* | **TALABALARDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA TAMOYILLARI**<br>*Ravshanova Dilshoda Mengziyoyevna* | *566* |
| *48* | **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARNING EKOPEDAGOGIK KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MODELI**<br>*Raximova Nuquljon Yusupovna* | *569* |
| *49* | ***PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA TA'LIMIY METODLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI***<br>*Sabohat Abdurahmonovna Mamatqulova* | *572* |
| *50* | **TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI**<br>*Sattarova Dilshoda Djavliyevna*<br>*Ulasheva Gulsevar O'rol qizi*<br>*Shodiyeva Mohichehra Bahrom qizi* | *576* |